

TRANSPORT TIZIMIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI KOMPLEKS BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Xakimov Rashid

Toshkent iqtisodiyot va
texnologiyalari universiteti
dotsenti

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda transport tizimida iqtisodiy samaradorlikni kompleks baholashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida transport tizimi samaradorligini belgilovchi moliyaviy, texnik, logistika va raqobat omillari tizimlashtirildi. Transport faoliyatini baholashda gorizontal, vertikal, qiyosiy va faktorial tahlil usullaridan foydalanildi. Infratuzilma holati, harakat tarkibi samaradorligi hamda yuk va yo‘lovchi tashish faoliyati natijadorligi o‘rganildi. Tahlillar transport tizimida investitsiyalarni kengaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va logistika yondashuvlarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijasida transport tizimining raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishini ta‘minlash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: transport tizimi, iqtisodiy samaradorlik, logistika, infratuzilma, transport boshqaruvi, raqobatbardoshlik, yuk tashish, integral baholash.

Аннотация

В данном исследовании проанализированы теоретические и практические аспекты комплексной оценки экономической эффективности транспортной системы. В ходе исследования систематизированы финансовые, технические, логистические и конкурентные факторы, определяющие эффективность транспортной системы. Для оценки деятельности транспорта использованы методы горизонтального, вертикального, сравнительного и факторного анализа. Также изучены состояние инфраструктуры, эффективность подвижного состава и результаты грузовых и пассажирских перевозок. Анализ показал необходимость расширения инвестиций, внедрения цифровых технологий и развития логистических подходов в транспортной системе. В результате исследования разработаны научно-практические рекомендации по повышению конкурентоспособности и обеспечению устойчивого развития транспортной системы.

Ключевые слова: транспортная система, экономическая эффективность, логистика, инфраструктура, управление транспортом, конкурентоспособность, грузоперевозки, интегральная оценка.

Abstract

This study analyzed theoretical and practical aspects of comprehensive assessment of economic efficiency in the transport system. The research systematized financial, technical, logistics, and competitive factors determining transport system performance. Horizontal, vertical, comparative, and factor analysis methods were applied to evaluate transport activities. Infrastructure conditions, rolling stock efficiency, and freight and passenger transportation performance were also examined.

The analysis confirmed the importance of expanding investments, implementing digital technologies, and developing logistics approaches in the transport sector. As a result, scientific and practical recommendations were developed to improve the competitiveness and ensure the sustainable development of the transport system. The study emphasized the significance of integrated assessment methods in enhancing transport management efficiency.

Keywords: transport system, economic efficiency, logistics, infrastructure, transport management, competitiveness, freight transportation, integrated assessment.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida transport tizimi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim infratuzilmaviy omili sifatida namoyon bo'ldi. U ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol jarayonlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlab, hududlararo iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Transport tizimining samarali faoliyati nafaqat logistika jarayonlarining uzluksizligini, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ham belgilaydi.

Transport tizimi faoliyatining iqtisodiy samaradorligi uni tashkil etuvchi elementlardan - infratuzilma, harakat tarkibi, boshqaruv mexanizmlari va bozor omillarining o'zaro uyg'unligi bilan belgilanadi¹. Shu sababli, transport tizimini baholashda faqat moliyaviy natijalar bilan cheklanib qolmasdan, balki tashish hajmi, texnik ko'rsatkichlar, xizmat sifati va raqobat ustunligi kabi omillarni ham kompleks ravishda hisobga olish zarur.

Transport tizimi rivojlanishida qator muammolar kuzatilmoqda. Jumladan, asosiy vositalarning eskirganligi, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, investitsiya hajmining pastligi hamda talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblik tizim samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu holat transport tizimini kompleks baholash va uni rivojlantirishning ilmiy asoslangan yondashuvlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, transport tizimida iqtisodiy samaradorlikni kompleks baholash, uning asosiy ko'rsatkichlarini tizimlashtirish hamda samaradorlikni oshirish yo'nalishlarini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Transport tizimi samaradorligini baholash va uni oshirish masalalari turli olimlar tomonidan keng o'rganilgan. V.G. Galaburda transport tizimini yagona iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib, uning samaradorligi infratuzilma rivoji, tashish hajmi va boshqaruv darajasi bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi². Uning yondashuvida transport tizimini kompleks baholashda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi.

B.M. Lapidus transport iqtisodiyoti doirasida temir yo'l transporti samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik, investitsiya siyosati va tarif mexanizmlarining o'rni

¹ Rodrigue J.-P. The Geography of Transport Systems. - 5th ed. - New York: Routledge, 2020. - 456 p.

² Галабулда В.Г., Персианов В.А., Тимошин А.А. Единая транспортная система. - М.: Транспорт, 2001. - 303 с.

yuqori ekanligini asoslaydi¹. U transport tizimi samaradorligini baholashda xarajatlar va daromadlar nisbatini tahlil qilish bilan bir qatorda, infratuzilma va harakat tarkibining texnik holatini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

N.M. Rozanova tarmoq iqtisodiyoti nuqtai nazaridan transport xizmatlari bozorida raqobat muhitining shakllanishi va uning samaradorlikka ta'sirini o'rganadi². Uning fikricha, transport tizimi samaradorligi bozor mexanizmlarining rivojlanishi, narx siyosati va xizmatlar sifati bilan bevosita bog'liqdir.

Xorijiy tadqiqotchilardan D. Hensher va K. Button transport iqtisodiyoti va logistika tizimlarini o'rganishda samaradorlikni baholashning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqqan³. Ular transport tizimida samaradorlikni oshirish uchun talab va taklif muvozanatini ta'minlash, logistika jarayonlarini optimallashtirish va infratuzilmani modernizatsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda transport tizimida iqtisodiy samaradorlikni kompleks baholash va uni rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlashda tizimli, kompleks va integrallashgan yondashuvlardan foydalaniladi. Tizimli yondashuv asosida transport tizimi o'zaro bog'liq elementlar - infratuzilma, harakat tarkibi, boshqaruv mexanizmlari va bozor omillarining yagona majmui sifatida tahlil qilinadi.

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez usullari orqali transport tizimi samaradorligini ifodalovchi nazariy qarashlar umumlashtiriladi, taqqoslash usuli yordamida esa samaradorlik ko'rsatkichlarining dinamikasi va o'zgarish tendensiyalari baholanadi. Gorizontol, vertikal, qiyosiy va faktorial tahlil usullari orqali transport tizimi faoliyatining turli jihatlarini, jumladan daromad va xarajatlar, tashish hajmi, texnik ko'rsatkichlar hamda raqobat omillari chuqur o'rganiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Transport tizimi faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash mavjud resurslardan foydalanish darajasini aniqlash, tizim rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni belgilash hamda ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon transport korxonalarini faoliyatini kompleks va tizimli tahlil qilishni talab etadi, chunki transport tizimi ko'p komponentli va o'zaro bog'liq elementlardan tashkil topgan murakkab iqtisodiy tizim hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, transport tizimi samaradorligini baholashda ko'rsatkichlarni bir necha asosiy yo'nalishlarga ajratish maqsadga muvofiq⁴. Jumladan, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi (daromadlar, xarajatlar, foyda), asosiy fondlardan foydalanish darajasi (eskirish, yangilanish, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish), mehnat resurslari samaradorligi (mehnat unumdorligi, ish haqi dinamikasi) hamda yuk va yo'lovchi tashish faoliyati natijadorligi (tashish hajmi, aylanma ko'rsatkichlar) alohida tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv transport tizimi faoliyatining har bir tarkibiy elementini chuqur baholash imkonini beradi.

¹ Лапидус Б.М. Экономика железнодорожного транспорта. - М.: УМЦ ЖДТ, 2011. - 512 с.


² Розанова Н.М. Экономика отраслевых рынков. - М.: Юрайт, 2017. - 410 с.

³ Hensher D.A., Button K.J. Handbook of Transport Systems and Traffic Control. - Oxford: Pergamon, 2003. - 720 p.

⁴ Button K. Transport Economics. - 4th ed. - Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2019. - 560 p.

Transport tizimi faoliyatini tahlil qilishda gorizontaal, vertikal, qiyosiy va faktorial tahlil usullaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Gorizontaal tahlil orqali ko‘rsatkichlarning vaqt davomida o‘zgarish tendensiyalari aniqlanadi, vertikal tahlil orqali daromad va xarajatlarning tarkibiy tuzilmasi baholanadi, qiyosiy tahlil yordamida turli faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha natijalar solishtiriladi, faktorial tahlil esa yakuniy natijalarga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu metodlar majmui tizim samaradorligini kompleks baholashga xizmat qiladi.

Samaradorlikni baholashda ko‘rsatkichlarni daromad va xarajatlar, tashish hajmi, harakat tarkibining sifat ko‘rsatkichlari hamda bozor sharoitida raqobat ustunligi kabi to‘rtta asosiy guruhga ajratish alohida ahamiyat kasb etadi(1-rasm).



1-rasm. Temir yo‘l transport tizimining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari¹.

¹ Muallif ishlanmasi


Daromad va xarajatlar ko'rsatkichlari yuk va yo'lovchi tashishdan olingan daromadlar hamda ushbu faoliyat bilan bog'liq xarajatlar aks ettiriladi. Bu ko'rsatkichlar transport tizimining moliyaviy natijadorligini baholash imkonini beradi. Tashish hajmi ko'rsatkichlari, transport xizmatlariga bo'lgan talab darajasi va tizimning ishlab chiqarish salohiyatini ifodalaydi.

Harakat tarkibining sifat ko'rsatkichlari bo'lib, vagon va lokomotivlardan foydalanish darajasi, ularning texnik imkoniyatlari va samaradorligini aks ettiradi. To'rtinchi guruh esa raqobat ustunligini ifodalovchi tashqi ko'rsatkichlarni o'z ichiga olib, transport xizmatlarining bozordagi o'rnini, narx dinamikasi, infratuzilma rivojlanish darajasi va xalqaro tashuvlar ulushi kabi omillarni qamrab oladi¹.

Olib borilgan tahlillar transport tizimida qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, asosiy vositalarning yuqori darajada jismoniy va ma'naviy eskirganligi, investitsiyalar hajmining yetarli emasligi, infratuzilmaning texnik holati past darajada ekanligi transport tizimi samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Harakatlanuvchi tarkibning yetarli darajada yangilanmasligi, vagonlar va lokomotivlar parkining nomutanosibligi ham yuk tashish jarayonlarining samaradorligini pasaytiradi. Bundan tashqari, logistika tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi va boshqaruv mexanizmlarining samarasizligi mavjud resurslardan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda.

Yuk tashish bozorida talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblik ham muhim muammo sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarish hajmining kengayishi va investitsiyalarning ortishi transport xizmatlariga bo'lgan talabni oshiradi, biroq transport tizimi ushbu talabni to'liq qondira olmaydi. Natijada ayrim yuk turlari boshqa transport turlariga yo'naltiriladi va bu transport tizimining raqobatbardoshligini pasaytiradi.

Transport tizimi samaradorligini baholashda integral yondashuvdan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunda korxonalarining mulkiy holati, moliyaviy barqarorligi va ishbilarmonlik faolligi kabi ko'rsatkichlar umumlashtirilib, yagona tizimli baho shakllantiriladi. Integral ko'rsatkichlardan foydalanish tahlilni soddalashtiradi va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qulaylik yaratadi. Shu bilan birga, transport tizimi kabi murakkab tizimni faqat bitta ko'rsatkich orqali to'liq baholab bo'lmazligi, ya'ni ko'p omilli yondashuv zarurligi ham e'tiborga olinadi.



2-rasm. Temir yo'l transportining samaradorlik ko'rsatkichlari².

¹ Notteboom T., Pallis A., Rodrigue J.-P. Port Economics, Management and Policy. - New York: Routledge, 2022. - 600 p.

² Muallif ishlanmasi

2-rasmda rasmda transport tizimi samaradorligini baholash ko'rsatkichlari turli sohalar kesimida tizimlashtirilgan holda aks ettirilgan. Unda samaradorlik faqat iqtisodiy natijalar bilan cheklanmasdan, balki ishlab chiqarish salohiyati, ijtimoiy soha va ilmiy-texnik rivojlanish kabi omillar orqali ham baholanishi ko'rsatilgan.

2-rasmda transport tizimi faoliyatining byudjet sohasi, huquq-tartibot tizimi hamda ekologik yo'nalish bilan o'zaro bog'liqligi yoritilgan. Bu esa transport tizimining ko'p qirrali va kompleks tizim ekanligini, uning samaradorligi iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va ekologik omillar uyg'unligi asosida shakllanishini anglatadi. Mazkur yondashuv transport tizimi samaradorligini baholashda faqat moliyaviy ko'rsatkichlarga emas, balki keng qamrovli tizimli omillarga tayanish zarurligini ko'rsatadi.

Transport tizimi samaradorligini oshirish uchun infratuzilmaga investitsiyalarni kengaytirish, zamonaviy texnologiyalar va raqamli yechimlarni joriy etish, logistika yondashuvlarini rivojlantirish hamda boshqaruv tizimini takomillashtirish zarur hisoblanadi. Shu bilan birga, bozor mexanizmlarini hisobga olgan holda transport xizmatlarini tashkil etish, talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash ham tizimning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Transport faoliyati samaradorligini baholash transport korxonalarining iqtisodiy faoliyati turli ko'rsatkichlari dinamikasini oldingi davrlarning o'xshash ko'rsatkichlari yoki hisobot davri uchun tasdiqlangan rejalashtirilgan qiymatlarga nisbatan tahlil qilish tartiblarini o'z ichiga oladi. Temir yo'l transporti korxonalari ko'rsatkichlarini to'rtta asosiy yo'nalishlarga ajratish maqsadga muvofiq:

- temir yo'l transport korxonalarining moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari;
- temir yo'l transport korxonalarining asosiy fonlaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari;
- temir yo'l transporti korxonalarining mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari;
- temir yo'l transportining yuk va yo'lovchi tashish faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlari.

“O'zbekiston temir yo'llari” AJ samaradorligini baholashda tahlil etilayotgan ma'lumotlarni gorizantal, vertikal va qiyosiy tahlil hamda faktorial yo'nalishlarga ajratib tadqiq etish maqsadga muvofiq. Ushbu yo'nalishlarning mazmuni quyidagi 1-jadvalda keltirilgan. Shu bilan birga temir yo'l transporti tizimining samaradorlik holatiga mamlakatning tranzit va logistika salohiyati hamda tarif tizimi kabi omillar ta'sirini alohida ko'rish maqsadga muvofiq.

Beshinchi yo'nalish bo'yicha tahlillarga qaraganda yangi materiallarni yotqizish, kapital ta'mirlash yetarli hajmda amalga oshirilmayapti. Uzoq vaqt davomida amalga oshirilgan investitsiyalar hajmining kamligi oqibatida temir yo'l transporti infratuzilmasidagi asosiy vositalarning jismoniy va ma'naviy eskirishi kuchayib bordi. Hozirgi vaqtda, bu holat poyezdlar harakati xavfsizligi, yuk va vagonlar aylanmasi hamda temir yo'l transporti faoliyatining boshqa integral ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarning kuchayishiga olib kelmoqda.

1-jadval.
Temir yo‘l transporti tizimi faoliyatining samaradorligini baholash yo‘nalishlari¹

№	Tahlil yo‘nalishlari	Mazmun-mohiyati
1	gorizantal	joriy yildagi haqiqiy ko‘rsatkichlarni rejadagi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslash
		joriy yildagi haqiqiy ko‘rsatkichlarni o‘tgan yildagi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslash
		so‘ngi 10 yildagi individual ko‘rsatkichlar qiymatlarini taqqoslash
2	vertikal	temir yo‘l transporti faoliyatining foyda keltiriladigan yo‘nalishlarini tahlil etish
		yuk va yo‘lovchi tashishdan ko‘rilgan foyda va zararlarni tahlil etish
		temir yo‘l transporti korxonalarini aktivlari dinamikasini tarkibiy baholash
		yuk tashishdan olingan foydadan foydalanishning tarkibiy tahlili
3	qiyosiy tahlil	temir yo‘l transporti korxonalarining turli faoliyatlaridan olingan daromad ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlil etish
		temir yo‘l transporti korxonalarining rentabellik darajasini qiyosiy tahlil etish
		temir yo‘l transporti korxonalarining operatsion foyda ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlil etish
4	faktorial	yuk va yo‘lovchi tashishdan olingan daromadlarining omilli tahlili
		asosiy faoliyatdan olingan foyda ko‘rsatkichlarining omilli tahlili
		temir yo‘l transporti korxonalarini mehnat resurslaridan foydalanishning omilli tahlili
		ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning omilli tahlili
5	rivojlanish	temir yo‘l transporti korxonalarining mulkiy holati ko‘rsatkichlari tahlili
		temir yo‘l transporti korxonalarining moliyaviy barqarorligi ko‘rsatkichlari tahlili
		temir yo‘l transporti korxonalarining ishbilarmonlik faolligi ko‘rsatkichlari tahlili

Yuqorida keltirilgan temir yo‘l transporti tizimi faoliyatining samaradorligini baholash yo‘nalishlarini hisobga olib, temir yo‘l transporti tizimi samaradorlik ko‘rsatkichlarini to‘rt yo‘nalishga ajratish maqsadga muvofiq (2.4-rasm):

- temir yo‘l transporti faoliyatida qilingan xarajat va olingan daromadlar;
- temir yo‘l transportida yuk va yo‘lovchi tashish hajmi;
- temir yo‘l transporti harakat tarkibi ishi sifat ko‘rsatkichlari;
- yuk va yo‘lovchi tashish bozorida raqobat ustunligi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari transport tizimida iqtisodiy samaradorlikni baholash kompleks va tizimli yondashuv asosida amalga oshirilishi zarurligini ko‘rsatdi. Tahlillar transport tizimi samaradorligi moliyaviy natijalar, tashish hajmi, infratuzilma holati, harakat tarkibi sifati hamda raqobat omillari bilan uzviy bog‘liqligini tasdiqladi.

¹ O‘rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Transport tizimi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim infratuzilmaviy tarmoq sifatida hududlararo iqtisodiy integratsiya, logistika jarayonlari va ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida transport tizimida infratuzilma va asosiy vositalarni modernizatsiya qilish, investitsion faollikni oshirish hamda logistika yondashuvlarini takomillashtirish zarurligi asoslandi. Transport xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va zamonaviy monitoring mexanizmlarini joriy etish muhim omil ekanligi belgilandi.

Transport tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va texnik yangilash dasturlarini kengaytirish;
- logistika markazlari va multimodal tashish tizimlarini rivojlantirish;
- transport boshqaruvida raqamli texnologiyalar va analitik platformalarni keng joriy etish;
- yuk va yo'lovchi tashish xizmatlarida sifat ko'rsatkichlarini oshirish;
- investitsiyalarni jalb qilish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish;
- transport tizimi faoliyatini integral ko'rsatkichlar asosida muntazam monitoring qilish.

Taklif etilgan yondashuvlar transport tizimining raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy samaradorligini kuchaytirish va uning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rodrigue J.-P. The Geography of Transport Systems. - 5th ed. - New York: Routledge, 2020. - 456 p.
2. Галабурда В.Г., Персианов В.А., Тимошин А.А. Единая транспортная система. - М.: Транспорт, 2001. - 303 с.
3. Лapidус Б.М. Экономика железнодорожного транспорта. - М.: УМЦ ЖДТ, 2011. - 512 с.
4. Розанова Н.М. Экономика отраслевых рынков. - М.: Юрайт, 2017. - 410 с.
5. Hensher D.A., Button K.J. Handbook of Transport Systems and Traffic Control. - Oxford: Pergamon, 2003. - 720 p.
6. Button K. Transport Economics. - 4th ed. - Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2019. - 560 p.
7. Notteboom T., Pallis A., Rodrigue J.-P. Port Economics, Management and Policy. - New York: Routledge, 2022. - 600 p.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**